



BAYRAM ALI MITTI HIKOYALARIDA BADIY TAFAKKUR VA HAYOTIYLIK IFODASI

Yusupova Diyora Oloviddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti

universitetining 3-kurs talabasi

[*yusupovadiyora0209@gmail.com*](mailto:yusupovadiyora0209@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bayram Ali ijodida mitti hikoyalar janrining o'ziga xos xususiyatlari, ularning badiiy-estetik ahamiyati hamda zamonaviy o'zbek nasridagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining mitti hikoyalarida ixchamlik, mazmuniy teranlik, ramziylik va hayotiylik uyg'unligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, kichik hajmli nasriy asarlarda inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar va hayot falsafasining ifodalanish usullari misollar orqali ko'rsatib beriladi. Maqolada mitti hikoyalar janrining nazariy asoslari bilan bir qatorda, Bayram Ali ijodining individual uslubi ham tahlil etilib, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati ilmiy xulosalar asosida yoritiladi.

Kalit so'z: mitti hikoya, Bayram Ali, sovg'a, e'tiqod, farzandlar, muhabbat.

Annotation: This article analyzes the specific features of the mini-story genre in the works of Bayram Ali, its artistic and aesthetic significance, and its place in modern Uzbek prose. During the research process, such characteristics as conciseness, semantic depth, symbolism, and the harmony of realism in the writer's mini-stories are scientifically examined. In addition, the ways of expressing human psychology, social issues, and the philosophy of life in short prose works are illustrated through examples. Along with the theoretical foundations of the mini-story genre, the article also explores Bayram Ali's individual style and highlights his role and significance in Uzbek literature based on scientific conclusions.



Key words: mini-story, Bayram Ali, gift, faith, children, love.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности жанра мини-рассказа в творчестве Байрам Али, его художественно-эстетическое значение, а также его место в современной узбекской прозе. В ходе исследования научно освещаются такие характеристики мини-рассказов писателя, как лаконичность, смысловая глубина, символичность и гармония с жизненной реальностью. Также на примерах показаны способы выражения человеческой психологии, социальных проблем и философии жизни в малых прозаических произведениях. Наряду с теоретическими основами жанра мини-рассказа, в статье анализируется индивидуальный стиль Байрам Али и на основе научных выводов раскрывается его роль и значение в узбекской литературе.

Ключевые слова: мини-рассказ, Байрам Али, подарок, вера, дети, любовь.

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborot oqimi tezlashgan davrda insonlarni qalin hajmli kitoblarni mutolaa qilishga jalb etish tobora murakkablashib bormoqda. Ilgari badiiy barkamol asar yaratish ijodkor oldidagi asosiy muammo sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda kitobxon e'tiborini jalb qilish va uni mutolaaga undash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamon talablaridan kelib chiqib, adabiyotda ixcham shakllarga, xususan, qisqa, ammo mazmunan teran hikoyalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu bois ko'plab ijodkorlar o'z asarlarida lo'ndalik, siqiq ifoda va ramziy qatlam orqali keng ma'noni ifodalashga intilmoqdalar.

Dilmurod Quronov badiiy matn tahliliga doir ishlarda hikoyaning ixchamligi, kompozitsion yaxlitligi va ramziylik darajasini muhim mezon sifatida ko'rsatadi. Bu fikrlar mikrohikoya janrini tushunishda ham asos bo'la oladi.¹

¹ Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2012.



Biroq badiiy matnda soʻz tejamkorligini saqlagan holda chuqur falsafiy va hayotiy mazmuni yoritish murakkab ijodiy jarayon sanaladi. Ibrohim Gʻafurov esa adabiyotda soʻzning iqtisodiyliigi (yaʼni ortiqcha soʻzdan qochish) muhimligini alohida qayd etadi. Bu qarash aynan mitti hikoyalar mohiyatiga mos keladi — kam soʻz bilan katta mazmun berish.² Har bir jumlada katta gʻoya va mazmuni mujassam etish yozuvchidan yuksak mahorat, nozik did va teran tafakkurni talab etadi. Shunga qaramay, zamonaviy oʻzbek adabiyotida ushbu yoʻnalishda samarali ijod qilayotgan yosh adiblar ham mavjud. Ana shunday isteʼdodli ijodkorlardan biri — Bayram Ali boʻlib, uning mitti hikoyalari ixcham shaklda katta hayotiy haqiqatlarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada ijodkorning “Sovgʻa”, “Eʼtiqod”, “Farzandlar”, “Muhabbat” nomli mitti hikoyalarining bayoni haqida toʻxtalamiz.

SOVGʻA

Bolakayga doʻstlari koptok sovgʻa qilishdi. Bolakay tugʻma oyoqsiz – nogiron edi...³

“Sovgʻa” — birgina soʻz boʻlsa-da, uning zamirida inson qalbiga bir olam quvonch va baxt olib kiruvchi maʼno mujassam. “Sovgʻa” nomli mazkur hikoyada esa yozuvchi bu tushunchaga yangicha yondashadi: bir bolaning murgʻak qalbiga quvonch va umid baxsh etishi mumkin boʻlgan sovgʻa kutilmaganda eng ogʻriqli tuygʻularni uygʻotuvchi omilga aylanadi. Asardagi ana shu keskin va kutilmagan burilish yozuvchining badiiy mahoratini namoyon etib, oʻquvchi qalbini larzaga soladi. Doʻstlari unga boʻlgan mehrini bildirish uchun koptok xarid qilishdi, ming afsuslar boʻlsinki, bolaning qalbida koptokka boʻlgan nafrati uning tugʻma nogiron oyoqlari doʻstlarining eʼtiboriga qaratishga yoʻl bermadi.

EʼTIQOD

² Ibrohim Gʻafurov. Soʻz va maʼno. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2010.

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bayram-ali-mitti-hikoyalar.htm>



Qizaloq bolalar uyida ota-onasining yuzini yerga qaratmaslikka tirishardi. Ulg'ayib, maktabga borgach ham shuni o'yladi. Bir kuni unga "o'g'ri" deb tuhmat qilishganida, endi ota-onasi o'zini yomon ko'rib qolishidan qo'rqib ketdi. Yig'ladi. Ota-onasiga aybsiz ekanini aytgisi, ularni juda ko'rgisi keldi...

Axir qizaloq ularni biror marta ko'rmagandi.

Mazkur hikoyada "bolalar uyi" obrazi butun asar mazmunini o'zgartira oladigan, hatto unga teskari ma'no yuklaydigan ramz sifatida talqin etiladi. U hayotning erta sinovlariga duch kelgan bolalar taqdirini dardli va ta'sirchan tarzda yoritishga xizmat qiladi. Bolaning beg'uborligi uning qalbida ota-onasiga qarshi nafratning o'rniga, ularning oldidagi mas'uliyatining yuksak ravishda ufurib turishidan ham ma'lumdir. Unga "o'g'ri" deb murojat qilishdi, u boshqa tengdoshlariga e'tibor qaratayotgan ota-ona mehrini, ularning e'tiborini o'g'irilashga urunmaganmikin. Yoki xulosani Bayram Ali o'quvchining o'ziga qo'yib berdi. Har bir kitobxon inson o'z qarashlaridan kelib chiqim, yushunib yetishi ham ijidkorning mahoratli qalamkashligidan dalolatdir.

FARZANDLAR

Boboning uch o'g'li gaplashib kelishardi: otasining qishloqqa nafi ko'p tekkan – hamma tomlarni o'zi yopgan edi.

Boboning uch o'g'li maqtanib kelishardi: otasining davlatga ham nafi ko'p tekkan – uch o'g'li uch mansabda!

Boboning uch o'g'li maqtashib kelishardi: otasiday muloyim odam yo'q – 80 ga kirib bironing ko'nglini og'ritmabti...

Boboning uch o'g'li... otasining janozasiga uch kun kechikib kelayotganini hali bilishmasdi. Ushbu hikoya bir o'qishda to'liq anglab yetish uchun murakkab bo'lib, undagi ma'no ko'lami keng qamrovli va ko'p qatlamlidir. Asarda ota va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, xususan, tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar va ularning oqibatlarini badiiy ifoda etilgan.



Ota yoshlik davrida farzandlariga yetarli e'tibor bermasdan, asosan moddiy ta'minotni ustuvor deb bilib, tunu kun mehnat qilish — tom yopish bilan band bo'ladi. Natijada u farzandlariga nafaqat vaqt, balki zarur tarbiyaviy yo'l-yo'riqni ham bera olmaydi. Keyinchalik esa farzandlarining mansabga erishishi yo'lida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar, xususan, laganbardorlik va mansabparastlikning o'tkinchi ekanini uqtirib bormaydi.

Bu jarayonda “qovun qovundan rang oladi” degan xalq hikmati o'z tasdig'ini topadi: farzandlar ham otasidek ishga mukkasidan ketgan, biroq ma'naviy qadriyatlar masalasida yetarli saboq olmagan bo'lib voyaga yetadi. Ota o'zini oqlash maqsadida 80 yoshga kirguniga qadar hech kimning ko'nglini og'ritmaganini asos qilib ko'rsatadi, ammo bu holat uning ota sifatidagi mas'uliyatini to'liq oqlay olmaydi.

Natijada, uning vafoti vaqtida farzandlarining yonida bo'lmasligi, hatto otasining o'limidan bexabar holda janozaga kechikib yetib kelishi — tarbiyadagi ushbu kamchiliklarning achchiq oqibati sifatida namoyon bo'ladi

MUHABBAT

— Esingdami, yoshligimizda uni sevarding? – so'radi erkak.

Ayol jilmaydi.

— U bunga loyiq edi, — dedi xo'rsinib.

Erkak ayolning ko'zlariga sinchiklab tikildi.

— Nazarimda... tuyg'ularing o'zgarmagan?

— ...

— Istasang ertaga u bilan uchrashtiraman.

— Ertaga?.. Ertaga erimning tug'ilgan kuni. Yonida bo'lishim kerak.

— Darvoqe, ering tuzukmi?

— Ikkinchi insultdan keyin tildan ham qoldi.

— Bechora. Yurmasa, gapirmasa...

— Balki indinga?..



— Indinga u ketayapti.

— Afsus. Unda uni sog‘inganimni aytib qo‘y.

Ular xayrlashishdi. Erkak biroz yurib to‘xtadi, mayus odimlab ketayotgan ayol tamonga tikilib insonning ko‘ngil kechinmalari nechog‘li murakkabligi haqida o‘yladi.

Muhabbat insonlar qalbiga ogohlantirmasdan kirib kelguvchi, lekin chiqish vaqtida insonning jismini vayron etguvchi bir darddir. Chiqib ketguvchi deb atagan bu tuyg‘uni aslida biz ojiz bandalar o‘zimizni chiqib ketdi deb ovuntirish uchun aytmasmikinmiz, Aslida bu bir umrlik qalbdagi yashovchi ichki do‘stimiz emasmi?

Hikoya qahramoni ham necha yillar o‘tishiga qaramasdan o‘z sevgilisini unuta olmadi, uni bir marta ko‘rish umidi bo‘lishiga qaramasdan Sharqona odatlarga oyoq bosmadi, turmush o‘rtog‘ining quvonchli kunida yonidan ketishga o‘zida kuch topa olmadi.

Xulosa qilib aytganda, Bayram Alining dardli hikoyanafis ekanligiga yana bir bor amin bo‘ldek. Yozuvchining hikoya yozishida so‘zlarning tanlay bilishi va qaysi yo‘nalishda ijod qilishi ham uning yetuk qalam sohibi ekanidan darak beradi. Muhabbat, farzand, e‘tiqod har bir inson hayotda duch keladigan tuyg‘ullar ekanligi har bir insonga ma‘lumdir. Lekin bu mavzuda ta‘sirli qilib hikoya yozish ham har kimga berilmasligi adibning boshqalardan ustun ekanini ifodalab beradi. Adib hikoyalarida ota-onaga bo‘lgan hurmat, sevgiga bo‘lgan sadoqat, bolalik beg‘uborliklari aks ettirilgan.

Masalan, Ozod Sharafiddinov o‘z ilmiy maqolalarida badiiy asarning qadrini uning hajmi emas, balki undagi ma‘no chuqurligi va g‘oya salmog‘i belgilashini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, kichik hajmli asarlar ham katta badiiy ta‘sir kuchiga ega bo‘lishi mumkin.⁴

⁴ Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Ibrohim G‘afurov. So‘z va ma’no. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2001
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bayram-ali-mitti-hikoyalar.htm>